O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN
MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

Texnologiya fakulteti

Texnologik mashina va jihozlar kafedrasi

18-KTTMJ-08 guruh talabasi
JO’RAYEV ELMUROD SADRIDDINOVICHNING

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu:** Kasb-hunar kollejlarida «Mashina va jihozlarga texnik xizmat ko’rsatish» fanidan «Mashinalarning ishonchliligi va ularga texnik xizmat ko’rsatish» mavzusini interfaol strategiyalar asosida o’qitish metodikasini yaratish

Namangan -2012 yil

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUXANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Texnologiya fakul’teti**

**«Texnologik mashina va jixozlar» kafedrasi**

**Ekspert ruxsati**
**(Rektor qarori bilan**
**dekan yoki prorektor)**
**________________________**

**«___» ___________ 2012 yil**

**“Ximoyaga ruxsat etaman”**
**Kafedra mudiri**
**dost. A. Normirzayev ___**

**«___» ___________ 2012 yil**

(*18-KTTMJ-08 guruxi*)

# Mavzu: Kasb-hunar kollejlarida “Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko’rsatish” fanidan “Mashinalarning ishonchliligi va ularga texnik xizmat ko’rsatish” mavzusini interfaol strategiyalar asosida o’qitish metodikasini yaratish

**Bitiruv malakaviy ishini bajardi:**
**5140900 – Kasb ta’limi (Texnologik**
**mashinalar va**
**jixozlar) yo’nalishining 4 kurs talabasi** **Jo’raev E**

**Bitiruv malakaviy ish raxbari:** **dots. Qirg’izov X**

**Maslaxatchi:** **__________________**

N a m a n g a n - 2012 yil

**«TASDIQLAYMAN»**
Texnologiya fakul'teti dekani
_________ dots. SH. Ataxanov
«___» _____________ 20___ y.

**NAMANGAN MUXANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Bakalavrlar uchun bitiruv malakaviy ishiga

**TOPSHIRIQ**

Texnologiya fakul'teti 5140900 – Kasb ta'limi (Texnologik mashinalar va jixozlar) yo'nalishi bo'yicha
TMJ kafedrasida bitiruvchi Jo'raev Elmurod

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: **Kasb-hunar kollejlarida "Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko'rsatish" fanidan "Mashinalarning ishonchliligi va ularga texnik xizmat ko'rsatish" mavzusini interfaol strategiyalar asosida o'qitish metodikasini yaratish.**

Ish rahbari t.f.n., dotsent Qirg'izov Xusniddin

**Rektorning ish mavzusi va raxbarini biriktirish haqidagi buyrug'i**

**№ 982-T «28» 12 2011 yil**

**Bitiruv malakaviy ishni topshirish muddati «____» ____________ 20___ y.**

**1. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar**

________________________________________________
________________________________________________
________________________________________________

**2. Tushuntiruv yozuvlarining tarkibi (45-60 bet, 10-15 ming so'm xajmida ko'lyozma tarzida):**

________________________________________________
________________________________________________
________________________________________________
________________________________________________
________________________________________________
________________________________________________

**3. CHizma ishlari tarkibi (ko'rgazmali chizma materiallar)**

________________________________________________
________________________________________________
________________________________________________
________________________________________________

4. **Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslaxatlar**

| T/r | Bo'lim mavzusi | Maslaxatchi o'qituvchining F.I.SH | Topshiriқ berildi | | Topshiriқ bajarildi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Sana | Imzo | Sana | Imzo |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |

5. **Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi (raxbar rejalashtiradi)**

| T/r | Bitiruvchi malakaviy ishi bosqichlarini nomi | Bajarish muddati | Tekshiruvdan o'tgan muddati |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Bitiruv malakaviy ishi raxbari Qirg'izov Xusniddin ______________

Topshiriқni bajarishga oldim Jo'raev Elmurod ______________

Topshiriq bajarilgan sana «____» ______________ 2012 y.

# MUNDARIJA

Kirish ........................................................................................ 6

I. Umumiy qism

1.1 Bitiruv malakaviy ish mavzularini aosolari…….................................... 8

1.2 Mashina va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish fanining tavsifi…..... 10

1.3 Fanlararo bog'lanishlar ……............................................................ 11

1.4 Mavzuning uslubiy va texnik ta'minoti ……................................... 12

II. Pedagogik qism……....................................................................................

2.1 Dars materiallari …...................................................................... 14

2.2 Dars rejasi…............................................................................... 16

2.3 Test topshiriqlari …...................................................................... 17

2.4 Fanni o'qitishda ta'lim metodlari va uslubining qo'llash uchun qiyosiy tahlil …....................................................................................... 20

2.5 Darsni tashkil etish …..................................................................... 22

2.6 An'anaviy va noan'anaviy o'qitish usullari …................................... 30

III. Hayot faoliyati havfsizligi …........................................................ 32

IV. Malakaviy ish samaradorligi

Xulosa ……………………………………………………… 37

Foydalanilgan adabiyotlar …........................................................... 39

Ilova

## Kirish.

Bizning mustaqil O’zbekiston Respublikamiz tarixidan o’tgan asrning oxirgi dekadasi mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida tubdan qayta qurisg dasturini ro’yobga chiqarilgan o’n yillik sifatida nishonlanadi. Jumladan, ta’lim soxasida ham keskin o’zgarishlar yuz berdiki, raqobatdosh kadrlar tayyorlamasdan turib iqtisodiy rivojlangan davlatni, qurib bo’lmas edi. Shu bilan bog’liq holda kasbiy ta’lim bizning mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi asosida, shunday darajada ko’taralishi kerakki, bunda u jadallik bilan mamlakatda va xorijda ilmiy-tehnik va iqtisodiy rivojini hisobga olgan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlay olsin. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, o’quv-tarbiya jarayonining barcha tomonlariga aloqador bo’lgan strategik maqsad va vazifalardan tortib to aniq dasturlar majmuasigacha, inson omiliga juda katta ahamiyat berilgan. Unda ta’lim xizmatlarini iste’molchisi va ishlab chiqaruvchisi bo’lgan shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti deb qaraladi.

Ta`lim xizmatlarini sifati va samaradorligi esa o`z navbatida ijodiy yondashuvni , yani shaxsni o`zining ijodiy fikrlashni rivojlantirish darajasiga bog`liq.

Zamonaviy ta`lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning o`ta muhimligini eng kamida ikkita asosiy sabablari bor. Birinchidan, oily o`quv yurti akademik ta`limning haqiqiy xayot talablaridan ajralib qolganligi, berilayotgan „tayyor” umumiy va kasbiy bilimlarning hayot amaliyotiga mos kelmasligi talabalarning o`qishga bo`lgan qiziqishlarni susayishiga sabab bo`ladi vabuning oqibatida olingan bilimlarning o`zlari ham ko`pincha ma`lumot xarakteriga ega bo`lib o`zlashtirishning reproduktiv darajasigina taaluqli bo`lib qolmoqda. Vaxolanki, hayot … fanlarni kognitiv o`zgartirish bilan chegaralanmaslikni talab qiladi, yangi pedagogik va didaktik yondashuvlarga va ularning rivojlanishiga sharoit yaratish zarur.chunki, aynan shular komunikatsiyaga ijodiy va tanqidiy taxlil, mustaqil fikrlash (mualliflar tomonidan belgilangan) va ko`p madaniyatli mazmunda jamoatchilik mexnati bilan, qachonki ijod ham an`anaviy yokiy milliy bo`lgan va ko`nikmalarni zamonaviy fan

va texnika yutuqlari bilan uyg`unlashuviga asoslanganida munosib malakalarni egallashga bilimdonlik va qobilyatlikni rivojlantirishga ta`sir ko`rsatadilar. Ikkinchidan o`zbek xalqiga xos mintalitet kattalarni irodasiga bo`ysinish, o`qituvchi o`rgatgan narsaga so`zsiz ishonch xosil qilish, hayotiy masalalarni hal qilishda samarasiz bo`lsada, eng oson yo`lni tanlash amaliy ziddyatlarni mumkin qadar chetlab o`tish kabi qator qonimizga singib ketgan,odatlarimiz ko`p xollarda ijobiy fikrlashdan cheklanib qolishga sabab bo`ladi. Shuning uchun ham kelajakda buyuk taraqqiyotga ega, xuquqiy davlat qurishni maqsad qilgan vatanimiz yoshlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ularni yangilik yaratishga bo`lgan xohish va istaklarni imkon darajasiga ko`tarish ko`zlangan maqsad va ezgulik yo`lidagi ta`lim tizimining asosiy tadbirlaridan biri hisoblanishi lozim.

# 1 Umumiy qisim

## 1.1 Bitiruv malakaviy ishi mavzusini asoslash.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni birinchi bosqichi davrida Respublikamizda akedemik litseylar, kasb-hunar kollejlari bunyod etildi va ularning o`quvtexnik bazalari zamonaviy o`quv jixozlari bilan to`la taminlandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichining asosiy vazifalaridan biri kasb-hunar kollejlari uchun Davlat tilidagi qo`llanma vaadabiyotlarni yaratish hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlarining xar bir mutaxsisliklari uchun, ayniqsa kasbiy fanlarni adabiyotlar ta`minoti hozircha talab darajasida emas. Kasb-hunar kollejlari uchun yaratilayotgan adabiyotlarning yangi avlodi kasb-hunar kollejlarini ta`lim standartlari talablariga to`la javob berishi lozim. Bundan tashqari respublikamizda amalgam oshirilayotgan “Katta ta`lim isloxatlari”ni aks ettirish lozim. Yaratilayotgan adabiyotlar o`quv qo`lanmalari nafaqat o`quvchilar auditoriyasi uchun, balki o`qituvchilar uchun ham mo`ljallangan bo`lishi lozim,ya`ni o`qituvchilar uchun mavzuvlarni va mashg`ulotlarni o`tishi va lozim bo`lgan ilg`or uslubiy ko`rsatmalar ham keltirilgan bo`lishi kerak. Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish. Kasb-hunar kollejlaridagi bu muammolarni yorish maqsadida teng oily o`quv yurtlari qoshida o`qituvchilarni malakasini oshirish kurslari va bo`limlari tashkil etiladi. Bunday bo`limlarni tashkil qilish kadirlarni tayyorlash milliy dasturini sifati bosqichini vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan muhimqadamlardan biridir.

Kasb-hunar kollejlarining pedagoglari ta`limstandartlari rejalari va fanning xar bir mavzuga bag`ishlangan dars mashg`ulotlarini aniq maqsadlar asosida rejalarni malakasiga ega bo`lish lozim. Xar bir fanning namunaviy va ishchi dasturlari asoslari xar bir mavzuga bag`ishlangan dars mashg`ulotlarini olib boorish jarayonini loyixalamasdan ta`lim jarayonini sifatini oshirishni tasavvur qilish mumkin. Dars jarayonini loyixalash yani soddaroq qilib olinganda rivojlantirish bu mavjud adabiyotlar ilmiy texnik jurnallar va axborotlar o`quv jixozlari o`qitish vositalari ko`rgazmali qurollar yordamida ta`lim va o`quv maqsadlarga erishishni eng samarali yo`llaridan biridir. Xozirgi kunda dars jarayonini rejalashtirishga va loyxalashga

bag`ishlangan ko`plab anjumanlar, o`quv kurslarini tashkil qilib ushbu anjumanlar materiyallari asosida uslubiy ko`rsatmalar ishlab chiqarilmoqda va talim jarayonida keng qo`llashda foydalanilmoqda. Jumladan kasbiy va texnika fanlaridan maruzalar matni o`quv qo`llanmalar va adabiyotlarni yozishi bo`yicha uslubiy ko`rsatma va qo`llanmalar ishlab chiqadi. Biroq bunday qo`llanma va ko`rsatmalarga texnik fanlarni o`ziga xos tomonlari yetarli darajada ochib berilmagan va hisobga olinmagan. Ta`lim jarayonida uning sifatini belgilovchi ana shunday muammolarni xal etish uchun kasbiy fanlarni xar-biri bo'yicha ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy fanlarni o`qitish uslublariga bag`ishlangan adabiyotlarni yoritish va ularni qo`llab nusxalarga chop ettirish ta`lim jarayonida hozirgi kunnig dolzarb vazifalaridan biridir.

Bitiruv malaka ishning asosiy maqsadi. Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish faniga keltirishidir. Ушбу фанни о`ыиш жараёнида о`ыувчилар ыишлоы хо`жалиги машина важихозлари турлари ёки машинани вазифаси,тузилиши уларни ишлаши ва констуруксион хусусиятлари, ыишлоы хо`жалиги ва машина жихозлари созлаш ишга тайёрлаш, ишлатиш ыишлоы хо`жалиги машина важихозлари тафсифномаларини махсус малумотнома асосида ишлаб чиыиши бо`йича билим ва ко`никмаларни эгаллайдилар.

Bitiruv malaka ishini asosiy maqsadi mashina jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish fanni o`qitishga yangi pedagogic texnologiyalar asosligi tushgan o`rni vazifasi va maqsadlarini fanlari aro bog`lanishlarini o`rganish va ularni ochib berishdan hamda mashinalar ishonchligi va ularda texnik xizmat ko`rsatish mavzusi asosida yangi pedagogik texnologiyalarini qo`llab o`qitish uslublarini ishlab chiqish hamda mavjud adabiyot vaqo`llanmalardagi ushbu mavzu materiyallarni taxlil etishdan iboratdir. Ishlab chiqarishda asosiy etibor dars jarayonining jixozlanishi didaktik materiallarini tavsiya qilinadigan adabiyotlar, dars jarayonini rejalashtirish va boshqa fanlardan o`tiladigan mavzulari bilan bog`lanishlariga qaratilib mavzuda belgilangan tashkiliy tarbiyaviy va rejalashtirish maqsadlariga erishish konutsiyalarini yoritib beradi.

## 1.2 mashina va jixozlarni texnik xizmat ko`rsatish fanining tavsifi.

"Mashina va jixozlarni texnik xizmat ko`rsatish fani 3621020 qichloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ta`lim yo`nalishi uchun o`quv rejasining maxsus fanlar blogiga kiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Mutaxasislik kabi;3621021bo`lib, qishloq xo`jaligi mashina va uskunalarni tamirlash texnik xizmat ko`rsatish va ishlatish bo`yicha kasb soxalarida kichik mutaxasislar tayyorlaydi.

1 Qishloq xo`jaligi mashina uskunalarni tamirlash bo`yicha chilangar

2 Keng prosrilli traktori

3 Elektro gazpayvandi.

4 „B" va „S" toifali xaydovchi

„Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish fani o`quv jarayonida 3-kursdan o`tiladi. Fanga ajratilgan umumiy qo`llanma 146soatga teng bo`lib bundan nazariy mashg`ulotlar 59 soat, amaliy mashg`ulotlarga 44 soat mustaqil ishga esa 43 soat ajratilgan.

„Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish " fanini o`qitishdan maqsad qishloq xo`jalik ishlab chiqarishda foydalanadigan mashina va jixozlar bilan tanishgan xolda ularga texnik xizmat ko`rsatish ishlarini o`rganish shuningdek nazariy va amaliy asosalari hamda bilimi va malakani bilishdan iborat. Fanning o`rganishi davomida o`quvchi bilim, o`quv ko`nikmalar bilan shakillantirib mustaxkamlab nazariy bilimlarini chuqurlashtirib, kengaytirib o`sib borishini talab qiladi.

„Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish" fanining mashinalarning ishonchligi ularga texnik xizmat ko`rsatish mavzusi 2 soatga mo`ljallangan bo`lib maruza mashg`uloti sifatida o`tkaziladi. Bu mavzuni o`tishdan oldin talabalar qishloq xo`jalik mashina va jihozlari fani bo`yicha kerakli malumotlarga ega bo`lishlari va yuqorida keltirilgan bilimlarni takrorlab, mustahkamlab olishlari lozim.

## 1.3 Fanlararo bog`lanishlar

,,Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish “ fani 5-6 smestirlarda o`qitiladi.dasturni amalgam oshirish o`quv rejasida rejalashtirilgan fanni o`zlashtirish jarayonia o`quvchi matematik va tabiy ilmiy hamda umumtalim fanlari bloklaridagi o`quv fanlarini mutaxasislar tayyorlash jarayonida tutgan o`rnini tushinib yetadi. Fanlararo alochilar ko`p kiradi,o`ziga xos turli xususiyatlargaega bo`ladi. Fanlararo aloqalarni ancha keng ma`noda tushunmoq kerak ta`lim berayotgan obekt bilim olish va tarbiyaga pedagogik tasir ko`rsatayotgan o`quvchilar o`quv jarayonida qanday ishtirok etishlariga bog`liq bo`ladi. Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish fanini chuqur egallash uchun o`quvchi tabiy-ilmiy fanlar (fizika oily matematika informatika) umumfanlar ta`limi (chizmachilik texnik mexanika elektirotexnika) yonilg`i moylash materiallari, metallar texnologiyasi, traktor va avtomabillar, qishloq xo`jalik mashinalar kabi bir qator maxsus fanlardan yetarli darajada bilimga ega bo`lishligi lozim.

Fanlararo aloqalar darajalarda o`quvchilarning faoliyatini oshirishga yordam beradi, o`quv materiallarini takrollanishini oldini oladi va o`qish vaqtida dasturda ko`rsatilgan materiallarni oqish uchun tejaydi.

Fanlararo aloqalar o`quvchilarni aqliy ilmiy uchun muammolivaziyatlarni yuzaga keltirishi va ularni xal qilish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

,,Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish fani quyidagi fanlar bilan bogqliq, talabalarga tushuntirish maqsadga muvofiq bo`ladi.




1-RASM. MASHINA JIXOZLARI TEXNIKA KO'RSATISH FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

## 1.4. Mavzuning uslubiy va texnik taminoti.

Pedagoglar talabalarga yangi o`quv materiallarni yetkazib berishda didaktikaning eng muxim prinsiplaridan biri ko`rsatmalilik prinsipidan foydalanadilar. O`quv jarayonida mashg`ulot borishda ko`rsatmalilikdan foydalanish talabalarda materialni yanada to`laroq tushinib olishlariga imkoniyat yaraladi.

Ko`rsatmalilik prinsipi o`qituvchini turli xil o`quv qo`llanmalaari va o`qitishning texnik vositalardan unimli foydalanishda ularni pedagogik jixatdan maqul tarzda tashkil etishda o`z aksini topadi.

„Mashina va jixozlarga texnik xizmat ko`rsatish fanidan" Mashina ishonchliligi va ularga texnik xizmat ko`rsatish mavzusini o`qitishda fan dasturlariga asosan quyidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Yo`ldashev Sh  Mashinalar ishonchligi va ularni tamirlash asoslari „O`zbekiston" Toshkent-1994.
2. Telnov N. Remont mashin.Agrogromizdat. Moskva-1992.
3. O`lman I. Texnichiskaya obslujivaniya va remont mashin. Agropromizdat Moskva-1990
4. Meliboev M. Mashina va jixozkarga texnik xizmat ko`rsatish „O`qituvchi" Toshkent-2006.

# 2.Asosiy qism

## 2.1 Dars materiali.

Mavzu Mashinalarning ishonchliligi va ularni tamirlash xaqida asosiy tushunchalari.

Traktorlar paxta terish mashinalar, avtomabillar va boshqa qishloq xo`jalik mashinalari foydalanish chog`ida xar xil tashqi tasirlarga uchraydi. Natijada loyihalash va tayyorlash jarayonida keltirilgan ishonchlilikgi buzilmasdan ishlash chidamlilikni tamirlashga yaroqlik xamda saqlanuvchanlik ko`rsatkichlari pasayadi. Bunga mashina detallarida turli xil nuqsonlar paydo bo`lishi va ularning yeyilishi sabab bo`ladi.

Texnik xizmat ko`rsatish va tamirlashning rejali oldini olish tizimi mashinalarni ishga yaroqli xolatda tutib turish uchun xizmat qiladi. Texnik xizmat ko`rsatish va tamirlash tizimi deganda ilmiy asoslangan tashkiliy texnik texnologik va iqtisodiy tadbirlarmajmui shuningdek qishloq xo`jaligi mashinalarning ishga yaroqli xolatda tutib turish uchun deganda ilmiy asoslangan hamda tiklanish tamirlaydigan vositalar tushuniladi. Meyorlar va qoidalarga amal qilish texnikani soz xolatda tutib turish bilan bog`liq bo`lgan ishlab chiqish xarajatlarni mumkin qadar kamaytirilgan xolatda texnikani ishonchli ishlashni oshirish imkonini beradi.

Texnik xizmat ko`rsatish va tamirlash tizimi qishloq xo`jalik texnikasini texnik xizmat ko`rsatadigan va uni tamirlaydigan xizmatlar xamda korxonalarni tgishli ishlarini oqilona tashkil etishga davit etadi.

Tamirlashni eng maqbul sifatini belgilab beradi qishloq xo`jaligining tamirlash bazasini rivojlantirishga ketadigan mablag`larni ishlab chiqarish bir yerga to`plash va ixtisoslashtirish evaziga kamaytirishni bir yerga to`plash va ixtisoslashtirish evaziga kamaytirish yordam beradi.

Tizim mashinalarni quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin traktorlar, paxta terish mashinalari g`alla yig`ish kombayinlari yuk avtomabillari boshqa turdagi qishloq xo`jalik mashinalari. Tizim asosan texnika ishlamay imkonini oshirishni ko`zda tutadi. Tizim ishlamay qolgan mashinalardagi nuqsonlarni bartaraf etishi ham nazarda tutadi.

Mashinalarni texnik axvolini binobarin ularni ishonchligini boshqarish mashinalariniishlash qobiliyatining sifat belgilarinito`liq tiklash hamda mashinalarning xolat parametirlarining muayyan qiymatlargacha tiklash bo`yicha tamirlash xizmat ko`rsatish ishlarini maqsadga yo`naltirgan xolatda o`tkazishdan iborat.

Mashinalarni texnik axvolini boshqarishda asoslanadigan asosiy ko`rsatkichlarga quyidagilar kiradi; ishlarning davriyligi bajargan ish tamirlash xizmat ko`rsatish ishlarisiz mashinani texnik axvolidan yo`lga qo`yiladigan chetga chiqishlar texnik xizmat ko`rsatish va tamirlash mashinalarni xolat parametrlarini tiklash darajasi tamirlashga qadar mashinadan foydalanish maqsadga muvofiq bo`lgan qoldiq resurs.

Agar mashina ayrim qisimlarning texnik axvolini aniqlash qiyin bo`lsa, yoki mumkin bo`lmasa ular uchun texnik xizmat ko`rsatish tamirlash (almashtirish

## 2.2 Dars rejasi

Kun, oy, yil

Guruh № 18

Fan nomi: Mashina va jihozlar texnik hizmat ko'rsatish.

Dars mavzusi: mashinalar ishonchliligi va ularga texnik hizmat ko'rsatish.

Dars turi: ma'ruza

Darsning maqsadi: talabalarga dars bo'lishga nazariy bilimlar, malakalarni shakllantirish.

Darsni tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning kelgusi faoliyatlarida o'z ishlarida yengil munosabatlarga yondoshlishlariga yordam berish

Darsni rivojlantirish maqsadi: Dars jarayonida talabalarning psihologik sifatlarini diqqat, hotira, tafakkur va bilim qobiliyatlarini shakllantirish.

Ko'rgazmali qurollarni bilishini sinash va texnik vositalari: plakatlar, texnik vositalar, hujjatlar

Takrorlash va talabalarni bilishni sinash vaqti: 5 … …. 10 minut

Yangi mavzuni bayon qilish vaqti: 55 ….. ….. 60 minut

Fanlararo aloqa: "Mashinalarni ishlatish va ta'minlash", "Yonilg'i tayyorlash materiallari", "Traktor va avtobillar".

Ishlab chiqarish bilan belgilash: Texnik xizmat ko'rsatish servislari

Talabalarni faoliyati: dars davomida faol bo'lish

Faollashtirish usuli: Interaktiv strategiyalardan keng foydalanish.

Muammoli savollar, vaziyatlar. O'tilgan mavzuni mustahkamlash usuli va vaqti: 5 minut

Davlat qarorlari va iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalanish:

Uyga vazifa berish: Darsni konspekt qilish muammoli topshiriqlar bajarish.

## 2.3 Test topshiriqlar.

1. tizim mashinalarni guruh to'g'risini belgilang.

a) yuk avtomobillari

b) traktor

v) paxta terish mashinalari

g) g'alla yig'ish mashinalari

d) barchasi tog'ri

2. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash rejani oldini olish maqsadi.

a) remontni oldini olish

b) ishga yaroqli holatda olib turadi

v) moylash ishi bajarilmaydi

g) oylik maosh o'z vaqtida chiqadi

3. Texnik xizmat ko'rsarish tuzish turlarini belgilang

a) joriy ta'mirlash

b) kapital ta'mirlash

v) Texnik xizmat ko'rsarish tuzish turlarini belgilang

g) oylik ta'mirlash

4. Texnik xizmat ko'rastish o'z ichiga

a) yuvish tozalash ishlari

b) nazorat qilish diagnostika ishlari

v) rostlash moylash ishlari

g) maxkamlash montaj va dermontaj

d) barchasi to'g'ri

5. Traktorlar paxta terish mashinalari avtomobillarni foydalanish chog'ida qanday tashqi ta'sirlarga uchraydi.

a) bir xil

b) ikki xil

v) har xil

g) sakkiz xil

6. Mashina agregat tizimining ishlash qobiliyatini ta'mirlash yoki tiklash uchun qanday ta'mir ishlari ishlab boriladi.

a) Kapital ta'mirlash

b) joriy ta’mirlash

v) Texnik xizmat ko’rsatish

g) Yillik ta’mirlash

d) a, b, v javob tog’ri

7. Mashina istalgan qismlari almashtirish yoki tiklash yo’li bilan buyum resusrsning tiklash uchun qanday ta’mirlash tushuniladi.

a) Kapital ta’mirlash

b) joriy ta’mirlash

v) Texnik xizmat ko’rsatish

g) Yillik ta’mirlash

d) a, b, v javob tog’ri

8. Mashina berilgan vazifalarni texnik hujjatlarni texnik talablariga mos keluvchi parametrlar bo’yicha bajarilmaydi.

a) jidamlilik

b) ishlash qobiliyati

v) ta’mirlashga yaroqlik

g) nosozlik

d) xizmat muddati

9. Kalendar ishlash davomiyligi bo’yicha bajara olish

a) jidamlilik

b) ishlash qobiliyati

v) ta’mirlashga yaroqlik

g) nosozlik

d) xizmat muddati

10. Texnik hujjati talablarini loaqal bittasiga ham mos kelmaslik bu

a) jidamlilik

b) ishlash qobiliyati

v) ta’mirlashga yaroqlik

g) nosozlik

d) xizmat muddati

11. Mashinalarning Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash oyi bilan ishlamay qolishi bu

a) jidamlilik qobiliyati deyiladi

b) ishlash qobiliyati deyiladi

v) ta'mirlashga yaroqlik deyiladi

g) nosozlik

d) xizmat muddati

12. Mashina, agregat usulining tutshmaning o'zining ishlash qobiliyati oxirgi holatgacha saqlash xususiyatlarini nima deyiladi?

a) jidamlilik deyiladi

b) ishlash qobiliyati deyiladi

v) ta'mirlashga yaroqlik deyiladi

g) nosozlik deyiladi

d) xizmat muddati deyiladi

## 2.4 Fanni o'qitishda ta'lim metodlari va  usularini qo'llash uchun qiyosiy tahlil.

Muahndislik-pedagog kadrlarni tayyorlashda qo'yiladigan kasbiy talablar bilan bir qatorda ilmiy texnikaviy ijtimoiy tarqqiyotni tez rivojlanayotgan qat'iy sharoitda mutahassis o'zini yo'qotmasligi, muammoni aniq ko'rishi va uni yangiligidan ko'rmaslik fikr yuritishini, yangiligi va samaradorligi ihtirochilik va sezgirlik kabi sifatlar bo'lishini talab etmoqda.

Bunday sifatlarga talab kun sayin oshib bormoqda, keyinchalik esa bu masala kun tartibidagi dolzarb masalaga aylanishi muqarrardir. Shu maqsadda zamonaviy o'quv jarayonida reproduktiv usul bilan bir qatorda produktiv (sermaxsul) qidirish-ijodiy usullarini ham qo'llash kerak. Ular quiyidagi afzalliklarga ega:

- mantiqiy fikr berish yuritish ma'nolarini ilmiy ijodiy yuritishga o'rgatadi
- zaruriy zaruriy bilamlarni mustaqil ijodiy qidirishga o'rgatadi
- uchragan qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi
- o'quv materiallarini isbotliroq qiladi
- bilimlarni ishonchga aylanishiga ko'maklashadi
- ijodiy shaxsni shakllantiradi
- o'qishga nisbatan ijobiy hislarni hosil qiladi
- bilishga qiziqishni shakllantiradi va rivojlantiradi
- ijodiy shaxsni shakllantiradi.

Produktiv o'qitishning sanab o'tilgan  avzalliklari bular bilan cheklanmaydi, lekin keltirilganlar ham agar ubugungi kun va undan ham ko`proq ertangi kun talablariga shunchalik mos bo`lsa nima uchun biz o`qitishni umuman produktiv qilib qo`ymaymiz degan savol tug`iladi, uning sabablari bir nechta produktiv usul universal emas har qanday o`quv informatsiyasiga ham ziddiyat mavjud emas va u o`quv muammo bo`laolmaydi. Bundayo`quv materialni reproduktiv usul orqali berish maqsadga muvofiqdir. O`quvchilar uchun qiyin masalalar ham mavjud. Qiyinchiliklarni kamaytirishni faqat reproduktiv usullar bilan amalgam oshirish mumkin. O`quvchilar juda oson o`zlashtiradigan materiallar bor. Ular asosida

murakkab vaziyat yaratishni imkoni yo`q, chunki ularni o`quvchilar birinchi martadayoq yechib beradilar bu xolda reproduktiv usullardan foydalanish joriydir. Xech narsa bitmasdan yangicha vaziyatni yaratishni imkoni yo`q. o`quvchilar bilishga qiziqishni o`rgatish uchun ular malum bilimlarga ega bo`lishlari kerak. Bu zaxirani reproduktiv usullar yordamida yaratish mumkin ko`rsatish o`qshatish va reproduktiv juda katta axamiyatga ega bo`lgan amaliy maxorat va ko`nikmalarni shakillantirishda produktiv usullar samara bo`yicha reproduktiv usullariga so`zsiz yutqazadilar o`quv materiallarini o`rganish uchun reproduktiv usullariga nisbatan produktiv usullar ko`proq vaqt talab qiladi.

O`quv jarayonini tashkil etishda va metodning u yoki bu usulni tanlash o`qituvchining pedagogik tajribasiga va maxorati saloxiyatiga bog`liq.

- muammoli bayon etish metodi

qisman ijodiy metodi bilim tayyot holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda ifodalaydi. Yangi bilimlarni qidirish, ishlashni tashkil etiladi bunday vazifalar bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar ajratiladi va hal etiladi:

- tadqiqiy metod: bunda muammo belgilab olinadi, muammoni tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi.

4. Didaktik maqsad bo'yicha quyidagilar farqlanadi:

- ilk bora bilimlarni o'zlashtirish metodlari
- egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillshtirish.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida darsga tayyorgarlik ko'rish an'anaviy usuldan sezilarli darajaga farq qilib o'qituvchi tomonidan tayyorgarlik davomida mazkur mavzuning aniqlashtirgan maqasadini uni o'tkazish usuli va tashkilini tanlash, namoyish etilishi lozim bo'lgan tasviriy o'tkazish usuli materiallarini tayyorlash, muammoli vaziyatlarni yaratuvchi topshiriq savollarini, o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini aniqlovchi baholosh mezonlarini ishlab chiqarish lozim bo'ladi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars jarayonini loyihalashda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

1. Mavzu va tayanch iboralarning o’quv maqsadlarini shakllashtirilgan (Blum taksonomiyasi asosida).
2. Mavzuni tayyorlash uslubini tanlanadi.
3. Mavzu va tayanch iboralarning o’quv maqsadlari.
4. Talabalarni faollligini oshiruvchi savollar, topshiriqlar, testlar masala yoki mashqlar tayyorlanadi.
5. Baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Bunda o’quv maqsadlariga erishganligini aniqlovchi belgilar, topshiriqlarni javoblariga mosligini belgilovchi mezonlar kelritishi maqsadga muvofiq.

## 2.5. Dars jarayoni loyixalashning har bir qismida o’qituvchi va talabaning aniq vaziyatlarini keltiradi.

I. Orlov qayd etilgandek “hozirgi reproduktiv usul ikkinchi darajali deb qaratiladi, lekin odamlarning ko’pchiligi aynan reproduktiv mehnat bilan shug’ullanadi, asl holda jamiyat o’z-o’zining eng zarur narsalar bilan ta’minkay olmas edi. O’qitishda tarbiyalovchilarning reproduktiv faoliyatini asosiy joyni egallashi lozim, chunki faqat shu shart bajarilganda zaruriy bilamlarni o’zlashtirish va shu orqali ijodga zamin yaratish mumkin”, shunday qilib namuna bo’yicha faoliyat usulini tiklash va qaytarish reproduktiv usulini asosiy alomatlaridan pedagogik og’zaki va yozma nutqidan foydalaniladi, o’rganuvchilar tayyor namuna bo’yicha topshiriqlar bajaradilar.

Hozirgi ta’limdagi o’qitishning asosiy tashkiliy uslubiy shakllari reproduktiv o’qitishning maktab an’analar bajarmoqdalar va takomillashmoqda. Ular amalda o’lchash va fikr yuritish jarayonlarni rivojlanishiga to’sqinlik qiladi va bo’lajak mutahassislikda o’z-o’ziga va o’zining kasbiy faoliyatiga but va keng qarashlar tizimini shakllantirishni ta’minlaydi.

Shu maqasadda zaminaviy o’quv jarayonida reproduktiv usul bilan bir qator produktiv, qidiruv-ijodiy usullarini ham qo’llash kerak. Quyidagi afzalliklarga ega:

- Mantiqiy fikr yuritish, muammolarni ilmiy, ijodiy yechishga o’rgatadi;
- zaruriy bilimlarni mustaqil ijodiy qidirishga o’rgatadi;

- uchragan qiyinchiliklarni yengishga o’rgatadi;
- o’quv materiallarni o’zlashtirishni chuqurroq va mustahkamroq qiladi;
- o’quv materiallarni isbotliroq qiladi;
- bilimlar ishonchga aylanishiga ko’maklashadi;
- o’qishga isbatan ijobiy hislarni hosil qiladi;
- bilishga qiziqishni shakllantiradi va rivojlantiradi;
- ijodiy shxsni shakllantiradi.



Produktiv o’qitishning sanab o’tilgan afzalliklari bular bilan cheklanmaydi, lekin keltirilganlari xam agar bu bugungi kun va undan ko’proq ertangi kun talablariga shunchalik mos bo’lsa nima uchun biz o’qitishni umuman produktiv usul universal emas xar qanday o’quv informatsiyasida xam jiddiyot mavjud emas va o’quv muammo bo’la olmaydi. Bunday o’quv materiallarini produktiv usul orqali borishi maqsadga muvofiqdir; O’quvchilar uchun qiyin masalalar zam mavjud. Qiyinchiliklarni kamaytirishni faqat reproduktiv usullari bilan amalga oshirish mumkin.; o’quvchilar juda oson o’zlashtiradigan materiallar xam bor. Ular asosida murakkab vaziyat yaratishni imkoni yo’q, chunki ular o’quvchilar birinchi matadanoq chiqib beradilar. Bu holda reproduktiv usullardan foydalanish joizdir. Xech narsa bilmasdan yangicha vaziyatni yaratishni imkoni yo’q. O’quvchilar bilimga qiziqishni uyg’otish uchun ular ma’lum “boshlang’ich” bilimlarga ega bo’lishlari kerak. Bu zaxirani reproduktiv usullar yordamida yaratish mumkin: ko’rsatish, o’xshatish va reproduktiv juda katta ahamiyatga ega bo’lgan amaliy mahorat va ko’nikmalarni shakllantirishga produktiv usullar samara bo’yicha reproduktiv usullarga ega. O’quv materiallarini o’rganish uchun reproduktiv usullariga nisbatan produktiv usullari ko’proq vaqt talab qiladi: Produktiv usullar muvaffaqqiyatli qo’llanish uchun o’qituvchining pedagogik malakasi yuqoriroq bo’lishi va muammoviy mashg’ulotni o’tkazish uchun xam uni tayyorlash uchun xam ko’proq pedagogik mehnat talab qiladi.

Agar o’quvchi imtixon paytida bu ma’lumotlarni tiklay olsa bu o’zlashtirishning asosiy ko’rsatkichi hisoblanadi. Bu tizimda bilim asosan eslab qolish natijasidir. Ko’pincha bu rasmiy ma’lumotlardir, ular odatda bevosita shu ma’lumotga oid savol berilganda xotira yuziga chiqadi yoki boshqacha qilib aytganda esga tushadi. Xotiradan tiklangan bilimlar shu xolatda uzoq saqlanmaydi. Kerak bo’lgan paytlarda ular qiyinchilik bilan yodga keladi, ko’pincha umuman esga kelmaydi. Ko’p marta o’tkazilgan sinovlar shuni ko’rsatadiki, ko’p vaqt o’tmasdan o’quvchilar ko’p narsalarni eslay olmaydilar.

2.5. Darsni tashkil etish.

Mavzu: Mashinalarni ishonchliligi, ularga texnik xizmat ko'rsatish.

Vaqt taqsimoti: 1-bosqich tayyorlov, 10 min

2-bosqich Davlat (chaqiruv) 15 minut

3-bosqich anglash 32 minut

4-bosqich- mulohaza (fikrlash) 20 minut

5-bosqich- uyga vazifa 3 minut

Jami- 80 minut

| | |
|---|---|
| O'quv qullanmalari:<br><br>Ko'rgazmali qurollar stentь "Mashinalarning ishochliligi usullariga texnik xizmat ko'rsatish" ma'ruza matnini, daftarlar, qalamlar, ruchkalar, 1,2,3,4,5, ... raqamlar yozilgan kartochkalar<br><br><br>Asosiy tayanch so'z va nabor ishonchliligi, yaroqliligi, buzuqlik xizmat muddat, texnik xizmat ko'rsatish, remont 1 xtk, 2 txk, 3 txk, mashinalariga txk, eksplutatsion chiniqtirish.<br><br>Interaktiv strategiyalar: kichik guruxlar bilan ishlash, "Insert" strategiyasi miya xujumi, sinkveyn uslabi, klaster tuzish. | Darsning maqsadi: (talabalarning vazifalari)<br><br>Bu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar :<br>1. Mashinalar ishonchliligi va texnik xizmat ko'rsatish to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar;<br>2. Ishonchliligi shartlari va texnik xizmat ko'rsatish turlarini sanay oladilar.<br>3. Texnik xizmat ko'rsatishlar bajaradigan ishlarni tushuntiradilar.<br>4. Qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlaridan foydalanadilar.<br>5. Mashina traktor parklaridagi asosiy texnik talablarni aniqlab ko'radilar.<br>6. Ekspulatatsion chiniqtirishga qo'yilgan talablarni baholaydilar. |

1-jadval

| Mashg'ulot bosqichlari | Pedagog | O'quvchilar |
|---|---|---|
| Tayyorlov bosqichi | Pedagog xonag kiradi va xammaga raqamlar yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Ketma-ket 4 ta raqamdan iborat o'quvchilar mos ravishda A, B, G, D, E belgi stollarga o'tirishlarini taklif qiladi. Darsni mavzusini maqsadi, o'tkazilishi tartibi va qo'yiladigan natija e'lon qiladi. O'quvchilar taklif etilgan natijalarni kichik guruxlarda muxokama qilinib guruxlar sardori bu xaqda qisqacha axborot berish lozimligini aytadi. Asosli takliflar , natijalar ro'yxatiga tuzatishlar kiritilib oxirgi variant ovozga qo'yib taqsimlanadi. | O'quvchilar xonaga kirishadi va bittadan raqamli kartochkalarni oladilar. Ketma-ket 4 ta raqamidan iborat o'quvchilar va kichik guruxlarga uyushgandan so'ng mashg'ulotlarga tayyor ekanliklarini bildiradilar.<br>Mashg'ulot mavzusi va undan qo'llanadigan natijalarga yoki taklif etiladigan natijalar ro'yxatini tasdiqlaydilar. |
| Davlat (chiqaruv) | Savollar beradi:<br>1. Ishonchlilik nima?<br>2. Mashina nima?<br>3. TXK nima?<br>4. Qanday TXK turlarini bilasiz?<br>5. Mashinalarni chiniqtirish deganda nimani tushunasiz?<br>6. Bugungi mavzu bo'yicha yana nimalarni bilishni xoxlardingiz? | Javob beradilar.<br>Ishonchlilik mashinalarning o'z vazifalarini belgilangan muddatlarda bajarishi, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan mashinalarni doimo shay xolda, uzoq muddat ishlashni ta'minlash uchun o'tkaziladigan tadbirlar 1-TXK, 2-TXK,3-TXK, MTXK lardagi bajaradigan ishlarni, ularga qo'yiladigan talablarni chiniqtirishning davomiylik TXK turlarni |

<table>
<tr><td rowspan="3">Insert texnologik jadvali majmui bilan tanishtirish. “V” – mening fikrlarimni tasdiqlaydi, “+” – yangi axborot “?”- aniq emas meni o’ylantirib qo’ydi. Mashinalar ularga TXK ma’ruza matni tarqatadi. Guruxlarda ishlash ishlar bajarishini tekshiradi. “?” belgisi turdagi ustunlar mazmuniga aloxida e’tibor bersin. Bu unga vazifa uchun mavzu bo’ladi. Savollar beradi matnini o’rganish jarayon qanday bormoqda. Lotin o’qish vaqtida olingan bilimlarni taqsimlanadi, jadval qanday yordam beradi.</td><td>-</td><td>V</td><td>+</td><td>?</td></tr>
<tr><td></td><td>Ishonchlilik, ishga yaroqlilik ishlamay qolish buzuqlik, buzulmay ishlash uzoq muddat ishlash, remont yaroqlilik saqlanuvchanlik xizmat muddati texnikaxizmat ko’rsatish birin texnik xizmat ko’rsatish, ikkinchi va uchinchi texnik xizmat ko’rsatish eksplutatsion chiniqtirish, mavsumiy xizmat ko’rsatish, xar semenada texnik xizmat ko’rsatish, joriy texnik xizmat ko’rsatish.</td><td>Ish muddati texnik traktorlar texnik xizmat ko’rsatish operatsiyalarning muddatlari va mazmuni xar smenada davriy (№1.2.3.) va mavsumiy (qishgi va yozgi ishlatishga o’tishda) texnik xizmat ko’rsatishda ishlatiladigan ishlar traktor va avtomobillarga TXK xar bir markadagi mashinalar uchun chiqarilgan qoidalar va texnologik kartalar remont qilishning rejali oldini olish sistemasi</td><td>Saqlanuvchi xujjati ish muddati birliklari texnik turlari xizmatlarning turlari, normativ texnik xujjatlar texnik xizmat ko’rsatish belgi jarayonlarinigng ketma-ketligi, eksplutatsion chiniqtirishda bajaradigan ishlar, chiniqtirishning taxminiy davomiyligi mashinalar TXK turlari</td></tr>
<tr><td>.</td><td>Matn bilan xoshiyatlarda to’ldirishadi. “Insert” jadvalini to’ldirish bo’yicha olingan bilimlar bilim o’rtoqlashtiradi</td><td colspan="2">Matn bilan ishlash vaqtida nima aniq bo’lgani va o’ylantirib qo’yganligi xususiyatida o’z fikrlarini aytishadi, tajriba bilan o’rtoqlashadilar.</td></tr>
</table>

MULOHAZA FIKRLASH

**Remont so'ziga sinkveyn tuzish**

**Axborot yig'ish va yozish**

1. Remont
2. Joriy capital
3. Sozlaydi, ta'mirlaydi, tiklaydi
4. mashinani avvalgi holatiga qaytarish
5. Tuzatish

Klaster axborotini yozish va turkumlash bajaradi, Klaster ikki bosqichda tuziladi.

1. Qo'yilgan masala yoki muammoga tuziladi, "miyaga hujum" (aqliy hujum) orqali yig'iladi.
2. "Miyaga hujum" orqali yig'ilgan tushunchalarning o'zaro bog'liqlarining belgilanib turkumlarga ajratiladi.

I-bosqich

| | | |
|---|---|---|
| TUZATISH | RAMA | KARTER |
| TRAKTOR | DIAGNOZ QO'YISH | KOMBAYN |
| MOYLASH | AVTOMOBIL | TXK PUNKTI |
| G'ILDIRAK | TXK POSTI | MAXKAMLASH |
| USTAXONA | QISHLOQ XO'JALIK | 1-TXK |
| YONILG'I | MASHINALARI | YONILG'I BAKI |
| QUYISH | KO'ZDAN KECHIRISH | ROSTLASH |
| SOZLASH | XCTXK | DVIGATEL |
| TEKSHIRISH | MASHINIST | QAYTA TIKLASH |
| 2-TXK | PO'LAT | ISHLAYOTGAN |
| TRAKTORI | TOZALASH | JOYDA |
| MTYK | SHINA | QOTIRISH |
| TOZALOVCHI | | |
| YUVISH | | |

JAVOBLAR BAHOLAB BORILADI



4-JADVAL

**Texnik xizmat ko'rsatish so'ziga klaster tuzish.**






1-RASM

## 2.6. An’anaviy va noan’anaviy o’qitish usullari (metodlari).

Hozirgi vaqtda o’quv yurtlarida, oily o’quv yurtlarida va kasb-hunar kollejlarida o’qitish zamonaviy shakl va usullaridan foydalanib kelinmoqda. O’qitishning zamonaviy usullarining qo’llash ta’limida yuqori samaradorlikkka olib keladi. An’anaviy o’qitishda asosan o’qituvchi erkinlik beriladi, noan’anaviy o’qitishda esa o’quvchiga erkinlik beriladi, o’qituvchi o’quvchi munosabatlarini demokratlashtirish asosida dars sharoitlari tashkil etiladi.

Ta’lim shakllari.

Froital ish barcha ta’lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash .

Guruxlarda ishlash, guruxlararo ishlash, individual ishlash.

O’qituvchi dars o’tishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

Aqliy hujum. Bu usulda o’qituvchi o’quvchilarga topshiriq beradi, o’quvchilar ishning topshiriqlar borasida berilgan fikr muloqotlari jamlanadi. O’quvchilar hamkorlikda murakkab harakat qiladilar. Uni ham yetish uchun o’z shakliy egallanishi ilg’ori so’radilar. An’anaviy o’qitish metodlari – og’zaki bayon qilish, tushuntirish, suhbar, ma’ruza, tushuntirish tadbirlar o’tkazsih natural obyektlari ko’zgazmali vositlarni namoyish etish, mashq, yozma ish, grafik ish laboratoriyalarini, ishlari bayon etilgan metodlari turida vosita va usul sifatida namoyon bo’ladi. O’qituvchi esa ular yordamida o’z yoki bu metodlari, ular yordamida u yoki bu metodlardan foydalanib darsni yuqori saviyad o’tkazadi.

Mashqlar, ko’nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkam bosh maqsadiga muayyn harakatlari ko’p marta takrorlashdir.

Yozma tekshirishi – o’quvchilarning bilimlarini sifatini to’g’riligi, aniqligi anglab olinganligi amalga tadbiq etish tog’risida bu fikrga kelish va qisqa bilimini tekshirib ko’rishga imkon beradi.

Yangi materiallarini bayon etish darslari mavzusi bayon etish va darsdan ko’zlangan maqsadni ochib berishini yangi materiallarini navbati bilan bayon etish yoki o’quvchilarning o’quv adabiyoti, tehnika adabiyoti (guruhlar, albomlar, tizmalar, sxemalar, texnologik sharoit shartlari va boshqalar) yoki spravochnik adabiyot bilan mustaqil ishlashni tashkil etishni, o’quvchilarning savollariga javob

qaytarishni, o’quvchilarning yangi materiallarini oz’lashtirish sifatini tekshirish qo’shimcha tushuntirish ishlarini uyga vazifalar berishni o’z ichiga oladi.

Suhbat o’quv jarayoni tashkil eishni savol-javobli metodi. Eng muhim ishchilar ahamiyati ega bo’lgan materiallarni suhbat metodiga o’rganish ma’lum suhbatga o’quvchilar bilimini muayyan sistemaga keltirish faollariga ketirishni amalgam oshiradi, o’quvchilarning nazariy bilimlari bilan ishlab chiqarish tadbirlari o’rtasida bog’lanib o’rtasi uchun foydalanish eng katta samara beradi. Kitob bbilan ishlash – og’zaki bayon va suhbat bilan bir qatorda yangi o’quv manbalarini bitirish metodlaridan biridir. O’quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashni tashkil etishda ularni rasm sxema, grafik va boshqa foydalanishga ularda mavjud bo’lgan ilmiy tehnikaviy ma’lumotlarni olishga o’rgatish ham mumkin.

Tushuntirish – o’qituvchi hat hil vositalar yordamida o’quvchilarga tayyor ma’lumit beradi va ular ma’lumotni qabul qiladilar, anglaydilar va hotiraga saqlaydilar.

So’zlab berish – o’quv materiallarini asosan tavsifi harakterda bo’lib mantiqiy ishchiligi bilan farq qiladigan joylarda qo’llaniladi.

Ma’ruza o’quv materiallari yaxshi va izchillik bayon etiladi, o’zaro bog’langan tushunchalar, qonuniyatlar sistemasi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ikki bog’lanishlar o’rnatiladi. Ma’ruza so’zlabberishga qaraganda uzoq davom etadi va o’quvchilarning yozib berishi ko’zda tutiladi. Ushbu usullar ta’lim berish va olish samaradorligini oshiradi. An’anaviy ta’limda ma’lumotlarni rivojlantiruvchi metodlardan darsning hat xil vosita: bilimlarni dastlabki o’rganishda mustahkamlash va takomillashtirish qo’shimcha, munozalarni shakllantirish foydalanishi mumkin.

## 3. Mashina xizmat ko'rsatishda chilangarlar uchun mehnat sharoitlarini yaratish.

Mehnatni muhofaza qilish bu tegishli qonun va boshqa meyoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi insonning mehnat qilish jarayonidagi havfsizligini, sihat salomatligini va qobiliyatini saqlanishini ta'mirlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'rifidan ko;rinib turibtiki, mehnatni muhofaza qilish ishlari markazida jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar inson va sog'ligini mehnat qilish qobiliyatining saqlashdek muhim asoslarini muhim vazifalaridan biri turadi.

Ishlab chiqarish korxonalarini loyixalash qurish va foydalanish jarayonlarida xavfsiz va ishchilar salomatligiuchun zararsiz bo'lgan sharoitlarini yaratib erish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari talabalariga mashina va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish fanining "mashina ishchiligi va ularga texnik hizmat ko'rsatish" mavzusini o'qitish bilan bir vaqtning o'zida aynan shu jarayonlardan xavfsizlik texnikasi qoidalarni ham tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega. Chunki chilangarlik ishlari jarayonida ishtirok etuvchi ishchilar uchun xavfsiz qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki chilangarlar dastgohlarga ishlashi uchun ma'lumdir. Malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan tajribali chilangarlarga ruhsat beriladi. Ular har yili kamida ikki marta mahsus instruktajdan o'tkazadilar. Odatda chilangarlar dastgohlar yordamida transport vositalari, tehnologik mashina va jihozlarning ishdan chiqqan metallarga ishlov berish va moslash ishlari amalga oshiriladi. Bunday sharoitda ishlovchilar uchun esa qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratib berish muhim ahamiyatga ega. Chilangarlik ishlarini bajarish jarayonida ishash vaqtda chilangarlar albatta GOST 12.4.0011-81 ga mos holda qo'pqop, bosh kiyimi, ko'z oynak va shu kabi barcha himoya vositalari bilan korxona hisobidan O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksida berilgan qonunlar

asosida ta’minlash kerak. Bu o’rinda xavo ish sharoiti og’ir sharoitli ustaxonalarda ishlovchilar sut va sut mahsulotlari bilan bepul ta’minlashlari, doimiy ichimlik suvlari bilan ta’minlanishlariga alohida e’tibor berishi kerak. Dastgoh yordamida detallariga ishlov berish sexida ta’mirlash ishlarini o’tkazish asosan mehnat muhofazasining ishlab chiqarish sanitariyasi meyorlari asosida chilangar mehanik ustaxonalarda amalgam oshiriladi.

Chilangarlar biror zararli yoki xavfli omillar ta’siriga tushub jarohatlanmaslari yoki kasb kasalliklariga yo’liqishlariga qarshi ular uchun xavfsiz qulay mehnat sharoitalarini yaratib, berish kerak. Buning uchun ular maxsus xonaga ishlovchilar bemalol harakatlanish uchun ma’lum maydon ko’zda tutilishi, bir so’z bilan aytganda, chilangarlarga sanitar-meyoriy sharoitlarini yaratish kerak.

Chilangarlik ishlarini bajarish uchun chilangarlik usta xonasi yaxshi yoritgichlar bilan ta’minlangan holatda bo’lishi kerak. Ishchilarga qulaylik yaratish maqsadida ehtiyot qismlarini yuqoriga ko’tarish, ko’tarib turish moslamalari bilan jihozlangan bo’lishi kerak. Transport vositalarini ehtiyot qismlari, texnologik mashinalar va jixozlarni ta’mirlash maqsadida og’ir ehtiyot qismlari yuklab olishda yolg’iz chilangarning o’zi ishlashiga ruhsat berilmaydi. Jihozlarni meyordan og’ir qismlarni ajratib olish uchun ko’tarish kranlari bo’lishi kerak.

Chilangarlik ishlari ustaxonasidagi namlik va zaxning chilangar organizmiga ta’sirini etiborga olgan holda ishchilarning oyoq ostilariga yog’och panjalari to’shalishi zarur.

GOST 12.1.046-81- “Ish joyini umumiy tekis yoritish talablari ” asosida tabiiy yoritganligi 300 lyuksdan kam bo’lmasligi talab etiladi. Bu yoritish yetarli bo’lmagan hollarda sindirilgan yorug’lik nuriga asoslangan holda lyuminisent lampalaridan foydalanish taqozo etiladi. Chilangarlik ishlari ustaxonasi GOST 1.21.005-81- “Ish xonasiga umumiy talablar” bo’yicha havo tartibida, yengil bug’lanuvchan yonilg’ilar uchun ruxsat etilgan mayor 100 mg/m$^3$ kelib chiqqan holda, moylarni hidi bug’lanish natijasida ajralib chiqadigan uglerod oksidlarining bir metr kub hajmli havo tarkibidagi miqdori 100 mg dan oshmasligi etiborga

olinadi. Bu meyorni saqlash uchun jihozlarni ta'mirlashdan oldin detallardan ajratish xonasida yuvish vositalari bilan tozalab olinishi talab etiladi. Yuvish ishlarini bajarish uchun ustaxonada mo'rili shkaf bo'lishiga ham alohida e'tibor beriladi.

Chilangarlik ishlari ustaonalarining havosi tarkibidagi turli zaxarli omillarning konsentratsiyalarini meyorlashtirish maqsadida xona havosini almashtiruvchi ventilyatorlar o'rnatilishi kerak. Har bir asbob-uskunlar meyoriy ishlashini ta'minlashlar ish joylarida ularni qo'yish, saqlash joylarini bo'lishi ham alohida e'tibor beriladi.

Chilangarlik ishlari ustaxonasining havosi tarkibidagi turli zararli omillarning konsentratsiyalarini meyotlashtirish maqsadida xona havosini almashtiruvchi ventilyatorlar o'rnatilishi kerak. Har bir asbob-uskunlar meyoriy ishlashini ta'minlashlar ish joylarida ularni qo'yish, saqlash joylarini bo'lishi kerak.

Chilangarlik ishlari ustaxonalariga ishchilarga qulay mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida chilangarlar uchun sanitariya maishiy xonalari ajratilishi muhim hisoblanadi, bularga asosan quyidagilar kiradi: yechinib kiyinish xonasi, yuvinish xonasi, dushxona, dam olish xonasi, kunning sovuq paytlari uchun isinish xonalari, ovqatlanish xonalari (agar korxona yaqin joylarda umum ovqatlanish xonalari talab darajasida bo'lsa, yaqin bo'lsa bus hart emas), tibbiyot xonasi va hokazo. Sanitar maishiy xonalarining yetrali bo'lishida ishchilarni sonini bilish muhimligi talablarda ko'rsatib qo'yilgan, agar mavjud imkoniyatlardan kelib chiqadigan bo'lsa, bir-biriga o'xshash ustaxonalar yaqin masofaga o'rnatiladi va sanitar maishiy xonalaridan umumiy holda foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Chilangarlik ishlari ustaxonalarga yong'in xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha GOST 12.1.004-76 (Yong'in xavfsizligi), GOST 17.1.010.76- (Portlash xavfsizligi) ko'rsatgichlari asosida ularga qarshi shitlar o'rnatilgan holatda bo'lishi talab etiladi. Yong'inga qarshi shitlarga o't o'chirish vositalari qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir chilangar mehaniklar xonasiga jarohatlanishlarga qarshi birinchi tibbiy yordam vositalari belgilangan tartibda ko'rinishga qulay joyga qo'yilishi kerak.

Chilangarlik mexanik ustaxonalarida mehnat muhofazasi bo'yicha korxona rahbari qonun bo'yicha javobgar sanaladi. Shu o'rinda chilangar belgilangan tartibda korxona hisobidan tibbiy ko'riklar o'tkazishni tashkillashtirish ham rahbar hodimni zimmasiga yuklatiladi.

Xulosa qilib aytganda, chilangarlar uchun qulay xavfsiz va sog'lom mehnat sharoit yaratilsa ishlar to'g'ri qilishdagina chilangarlar o'rtasida esa kasb kasalliklari kam bo'ladi. Yoki umuman kuzatilmaydi, buning oqibatida ish unumdorligi ortishiga omil bo'ladi.

4. O'qituvchining ijtimoiy samaradorligi.

O'qituvchining ilg'or pedagogik texnologiyalar asosidan tashkil etishdan maqsad o'qitish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan biz yuqorida qayd etilgan pedagogik innovatsion texnologiyalarni biiz "mashina jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish" fanidan o'qitish  jarayoniga tatqiq etdik.

Buning uchun kasb-hunar kollejidagi 78.79-transport guruxlarni tanlab oldik, har ikki guruhda ja'mi 30 nafar talaba bo'lib, "mashina ishonchliligi va ularga texnik xizmat ko'rsatish" mavzusini 78 guruxda an'anaviy usulda quyidagi reja asosida olib borildi.

1. Mashina borligi ishonchliligi
2. Texnik xizmat ko'rsatish
3. Ta'mirlash.

79 guruhda esa yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol strategiyalari, tarqtma materiallar, test kartochkalari, bahs-munozara, "Inset" texnologik jadvali, sinkveyn, klaster kabi intarfaol usullardan foydalangan holda dars jarayoni olib borildi, mashg'ulotlar ikki juftlikda mavzu bo'yicha mashg'ulotlar 15 daqiqa avval yakunlandi, so'ngra har ikki guruhga avvalgi mavzuga oid test savollari tarqatildi. Testlatga javob berish uchun o'quvchilarga 10 daqiqa vaqt ajratildi.

Ular pedagogik texnologiyalarni mashg’ulotlarga tatbiq etish yuzasidan o’tkazilagn bu tatqiqotlar natijasi shuni ko’rsatadiki, an’anaviy usulda mashg’ulot o’tkazilgan 78 guruhdagi ja’mi 15-nafar talabadan faqatgina 2 ta talaba 86-100% li, 8 nafar talaba 71-85% li, 5 nafar talaba esa 56-70% li o’zlashtirish natijalari qayd etildi. Ilg’or pedagogik texnologiya asosida mashg’ulot olib borilgan 70 guruxda esa ja’mi 15 nafar talabadan 4 nafari 86-100% li, 9 nafari 71-85% li, qolgan 2 nafari esa 56-70% li o’zlashtirish ko’rsatkichiga erishdilar. (jadval)

Test natijalari.

| № | Mashg’ulot turi | Guruxi | Talabalar soni | O’zlashtirish ko’rsatkichi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 86-100% | 71-85% | 56-70% | 55% kam |
| 1. | An’aniviy usul | 107 g. | 15 | 2 | 8 | 5 | - |
| 2. | Ilg’or ped. texno-logiyalar asosida | 108 g. | 15 | 4 | 9 | 2 | - |

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko’rinib turibtiki o’qitish jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanish amaldagi uqitish usuliga nisbatan samarali hisoblanadi. Bu usulda o’qitishda albatta pedagogdan pedagogik mahorati yuqori, malaka, o’z ustida ishlash, izlanuvchanlik, talabalar bilan muloqot qilish xuxusiyatlari bo’lishi ham talab etiladi.

## Xulosa.

Inson uning har tomoonlama kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarining ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy hulq atvorning andozasini o'zgartirish, respublikamizda asosiy maqsad va harakatlantiruvchi kuchidir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda oldimizga qo'yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishimiz, jamiyatimizning yangilanish, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalgam oshirayotgan islohotlarimiz rejalarining samarasi, taqdiri. Bularni barchasi avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'langanligi barchamiz anglab yetmoqdamiz".

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatimizga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyatiga, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa bilishi mahoratiga ega bo'lgan istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni yangi avlodini shakllantirish, shuningdek har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslangan ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat v oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazorga tutgan pedagogik g'oyani ilg;ori suradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashni, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan mintaqamizning pedagogik sharoitiga moshlashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularning ta'lim tarbiya amaliyotiga qo'llashga intilmoqdalar. O'qituvchi pedagoglarni o'zida muloqot baxs olib boorish madaniyatini shaklllantirish maqsadida pedagogik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar, ayniqsa mihimdir. O'zaro hamkorlik pedagogikasi o'qituvchi pedagogik va o'quvchi talaba orasida ham birlik

muhimdir. Ishonch, o’zaro yordam, iqtisodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa o’z navbatida yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatni anglash va e’tirof etishni kafolatlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyoti poydevori”- T., “Sharq”, 1997.
2. Karimov I. A. “O’zbekistonni o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li”- T.: “O’zbekiston”, 1992.
3. O’zbekiston Respublikasining qonuni: Ta’lim to’g’risida – T.: “Sharq”, 1997.
4. Ishmatov Q. “Ilg’or pedagogik texnologiyalar” (maruza matni). Namangan, NamMPI, 2007.
5. Ishmatov Q. “O’qitishning interfaol texnologiyasi” (metodik qo’llanma) – Namangan, NamMPI, 2007.
6. Garbumov B.I, Musina P.G, Jumaboyeva F.A. “Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari” (o’quv qo’llanma) – T.: “Fan”, 2002.
7. Davlatov G. “Mehnat va kasb ta’limidan amaliy mashg’ulot” – T.: “O’qituvchi”, 1995.
8. Mirsamidov X.Z. “Maxsus fanlarni o’qitish va ishlab chiqarish ta’limi” – T.: “O’qituvchi”, 1996.
9. Tolipov L. “bilimlarni ko’nikma va ma’lumotlarga aylanish texnologiyasi” ma’rifat gazetasi 17.01.2000 y.
10. “Muhandislik-pedagogika ta’minlash innovatsion texnologiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Namangan, 2004 y.
11. Shakun B.A. “ishlab chiqarish ta’limi ustozi uchun qo’llanma” – T.: “O’qituvchi”, 1992.
12. Faberman B.I. “Ilg’or pedagogik texnologiyalar” – T.: “Fan”, 1999.
13. Yo’ldoshev Sh. “Mashina ishonchliligi va ularni ta’mirlash asoslari” – T.: “O’zbekiston”, 1994.
14. Telnov N. “mashina agromisdat” - Moskva, 1992.
15. O’lmon U. “техничная общественная ремонт машин”. Agromisdat. Moskva, 1990.
16. Meliboyev M. “Maxshina va jihozlarga texnik hizmat ko’rsatish” – T.: “O’qituvchi”, 2006.